

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL
METODLARNING MOHIYATI

O'ZDJTU, 2- ingliz tili fakulteti talabasi

Suvanova Oydin

Ilmiy rahbar: Mamatkulova Nilufar

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida yetuk mutaxassislar tomonidan keng miqyosda foydalanilayotgan interfaol metodlar tavsifi, ushbu atamaning qanday ma'no va mazmun bildirilishi hamda bunday texnologiyalar qo'llanganda qanday yutuqlarga erishish mumkinligi batafsil bayon etiladi shu bilan birgalikda bir nechta namunalar va dars davomida ularni ta'lim oluvchilarga qay tarzda to'g'ri yetkaza olish usullari ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: "interfaol", "inter", "act", zig-zag metodi, blitz savollar, kubik, grafik organayzer, reading- matn ustida ishlash, mantiqiy fikrlash,

Hozirgi kunda nafaqat bizning respublikada balki butun dunyo miqyosida chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga va o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda o'quvchi hamda o'qituvchilarga turli yengillik va sharoitlar yaratib berilgan holda ularning bilimi va malakasini baholash maqsadida turli olimpiadalar ham o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu talablarga javob bera oladigan, til o'rganuvchilarga tez va samarali ta'sir o'tkazadigan hamda dunyo ilm-fanida bellasha oladigan yetuk kadrlarni tayyorlaydigan metodlar yig'indisi esa interfaol metodlar deb ataladi bu hodisa bugungi kunda ko'plab mutaxassislar tomonidan ham e'tirof etilgan bo'lib shu bilan birgalikda barcha chet tili darslarida turli talqinlarda foydalanilib kelinmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi, "interfaol" atamasining mohiyati nimada? "Interfaol" atamasi inglizcha "inter"- o'zaro, ikki tomonlama hamda "act"-harakat so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mashg'ulot davomida o'qituvchi va o'quvchi yoki kichik guruhlarining o'zaro birlikdagi munosabatiga asoslangan aynan shu sababli ushbu metodlar insondagi interaktivlikni oshira oladi. Ushbu usullar nafaqat o'zaro munosabatlarni shuningdek talabadagi bilim, malaka va ahloqiy sifatlar kabi turli jabhalarini birdek rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning eng ko'p qo'llanadigan namunalaridan biri bu "zig-zag" metodidir ya'ni ushbu usul dars davomida kichik guruhlar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi:

Dastlab, o'quvchi yoki talabalar bir necha kichik guruhlariga ajratiladi so'ngra vaqtni tejash maqsadida har bir guruhga sardor tayinlanadi;

Guruhlar sonidan kelib chiqib o'rganilayotgan mavzu matni ham kichik qismlarga ajratiladi belgilangan vaqt mobaynida har bir guruh matn bilan tanishib

chiqqan holda sardor tomonidan umumiy tushuncha beriladi;

Boshqa a'zolar tomonidan ham turli talqindagi to'ldirishlar ham berilishi mumkin, shundan so'ng matn boshqa guruh bilan almashtiriladi va shu tarzda davom etadi.

Ushbu metodning mohiyati shundaki, u dars davomida yangi mavzuni o'zlashtirishda vaqtni tejagan holda o'quvchilarni bir-birini eshitishga undashi bilan ham ahamiyatga molikdir sababi boshqa guruh nutqidan so'ng turli o'quvchilarga turli blitz savollari berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi chunki bu bir vaqtning o'zida mavzuni mustahkamlaydi qolaversa guruh a'zolari orasida diqqatni jamlashga va e'tiborliroq bo'lishga ham ko'maklashadi. Ushbu interfaol texnologiyaning yana bir foydali jihatlaridan biri har bir o'qituvchi o'zi foydalana olgan holda turli o'zgartirishlar ham kiritishi mumkin, misol qilib oladigan bo'lsak birinchi guruh "a" matn ustida ishlagandan so'ng ikkinchi guruh ushbu matndan birinchi guruh aytmagan ma'lumotlarni yig'ib olib boshqalarga yetkazishi kerak bo'ladi bu o'z navbatida har bir guruh a'zosidan matnni har tomonlama va mayda-mayda detallargacha o'rganib chiqishga sabab bo'ladi. Ushbu usul talabalardagi zukkolikni va ko'proq e'tiborli bo'lish sifatlarini shakllantiradi bu esa o'z navbatida dars sifatida vaqtning tejalishiga hamda shu qisqa vaqt ichida talabalar ko'proq ma'lumotlarga ega bo'la olishga imkon yaratadi.

Ammo barcha qulayliklariga qaramasdan dars jarayonida qattiq nazorat olinmagan hollarda ushbu zamonaviy metod ba'zi bir kamchiliklarini yaqqol namoyon etishi mumkin misol qilib aytadigan bo'lsak, guruhlarda ishlash oqibatida o'qituvchining tasodifan bee'tiborligi yoki darsni yaxshi tashkil eta olmasligi oqibatida uning jarayondagi roli pasayishi hamda sinfda ko'proq shovqin yuzaga kelish holatlari kuzatiladi sababi guruhdagi har bir o'quvchi o'rtasida muhokama qilish shuningdek, nutq so'zlashga intilish tinchlikni yo'qolishini asosiy omilidir shu tufayli o'qituvchi iloji boricha barcha talaba bilan ishlay olishi aks holda guruh sardorlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy interfaol metodlardan yana biri bu "kubik" metodidir ushbu metod xorijiy til o'rganayotgan talabalarga IELTS o'quv darsliklarida ayniqsa reading ya'ni matn ustida ishlash qismida osonlikcha tushunib uni atroflicha o'rganishga yordam beradi shuningdek, nafaqat ushbu qismda balki hozirgi kunda rivojlanayotgan mantiqiy fikrlash boshqacha aytganda- critical thinking amaliy dasturiga ham mos bo'lib, ushbu texnologiyani quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tasvirlang- ushbu qismda o'quvchilar matndan yoki mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini tasvirlaydi shu bilan birgalikda o'zining umumiy tushunchasini ham bayon etishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar chuqur kirib ketmagan holda atroflicha ko'zdan kechirib chiqishadi.

2. Taqqoslash-bir-biriga yaqin bo'lgan yoki qarama-qarshi shakllangan faktlar, ideyalarni taqqoslashdan iborat, aynan shu qism mantiqiy fikrlashni o'stirib miyada turli kritik g'oyalarni vujudga keltiradi.

3. Izohlash- ya'ni aynan bundan oldingi g'oyalarni, taqqoslangan fikrlarni aynan nima uchun shunday ekanligining maqsadi hamda sabablari bilan batafsil izohlab berishdan iborat.

4. Asoslash- ushbu qism bundan avvalgisiga o'xshash deya hisoblansada ammo tubdan farq qiladi sababi shundaki, izohlashda shaxs aynan o'zining dunyoqarashi va fikrlashidan kelib chiqib g'oya ilgari sursa asoslanayotgan paytda aniq hamda isbotlangan dalillardan foydalanish talab etiladi, ma'lumotlarning kelib chiqishi manbasi, vaqti va shu kabilarni keltirish maqsadga muvofiqdir.

5. Tahlil qilish- umumiy xulosani keltirib chiqara olish ya'ni barcha qismlar qaytadan ko'zdan kechirilib, g'oyalar tahlil qilinadi, maqbul variant hamda to'g'ri fikr tahlil etilib mavzu yuzasidan mustahkamlash olib boriladi.

6. Qo'llash- ushbu interfaol metodni, undan olingan bilim hamda ko'nikmani hayotga bo'g'lagan holda tadbiiq eta olish qobiliyatidir. Ayniqsa til o'rganayotgan talabalarda xorijiy tilni amalda qo'llay olsagina o'sish kuzatish mumkin.

Kubikning qirralari hisobiga ushbu metod ham 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ularni dars davomid to'g'ri ketma- ketligiga asoslangan holda foydalanilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi shu bilan birgalikda ushbu texnologiyaning foydali jihatlaridan biri har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishlash imkoniyatini yarata olib, barcha jihatlarni o'z ichiga qamrab olganligi tufayli xotirada boshqa metodlardan ko'ra tez va oson saqlanib qolish imoniyatini yaratadi. Shu bilan birgalikda guruh shaklida ham qo'llanishga mo'ljallangan metod hamda har qanday yangi mavzuga moslashib osonlikcha amalga oshiriladi ya'ni bu qanday yuz beradi? Har bir talaba mustaqil mavzu yuzasidan ishlagandan so'ng guruh bo'lib muhokama qilinadi bu esa bir vaqtning o'zida ham individual ishlash ham kommunikativ ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova (2013). Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi. Toshkent

A.Shamshetova, R.Melibayeva, X.Usmanova, I.Xaydarov(2018). Umumiy psixologiya. Toshkent

M.To'xtaxo'jayeva (2010). Pedagogika

<https://uniwork.buxdu.ux>